



XORAZM VILOYATINING O'G'UZ SHEVALARIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARINI TAHLILLASH

Shamuratova Malohat Ilhambekovna

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'zbek tili va
adabiyoti fani bo'yicha assistent o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14010965>

Kalit so'zlar: sheva, lahja, dialekt, o'g'uz lahjasi, frazeologizm, frazema, leksik.

Ключевые слова: диалект, огузский диалект, фразеология, лексика.

Keywords: dialect, dialect, Oghuz dialect, phraseology, lexicon.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng fan va ta'lim sohasiga e'tibor kuchaydi. Xususan, tilshunosligimizdagi tadqiqoti hali yakuniga yetmagan mavzular yoritila boshladi. . Aynan, frazeologiya sohasida qancha tadqiqotlar amalga oshirilsa ham hali poyoniga yetganicha yo'q.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni birinchi bo'lib Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. Uning 1966-yilda himoya etilgan doktorlik ishida va «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» nomli monografiyasida frazeologizmlarning grammatik tabiati keng ko'lamda yoritilgan. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab beriladi. Monografiyada o'z ifodasini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o'rganishga imkoniyat yaratdi. Olimning keyingi yillarda yaratgan qator ilmiy ishlari ham o'zbek frazeologiyasining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

«Frazeologizmlarni shakllanish doirasi jihatdan o'rganish alohida ahamiyatga ega».[Tursunov U va bosh.149-b]

Keyingi yillarda frazeologizmlarni grammatik va semantik planda o'rganish bir kadar sustlashib qolganligi ko'zga tashlandi. Bu sohada A.Rafiev, A.Mamatov va Q.Hakimovlarning nomzodlik ishlarini hisobga olmaganda, tilshunosligimizda frazeologizmlarning grammatik-semantik tabiatini tadqiq etuvchi ilmiy ishlar ko'p yaratilmadi.

Erishilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga, hali o'zbek frazeologiyasining ko'pgina jihatlarini tilshunoslar e'tiboridan chetda qolayotganligini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, frazeologik ob'ektni belgilash, frazeologizmlarning paydo





bo'lish va shakllanish tizimi, manbalari, tarixiy taraqqiyoti, frazeologik semantik bog'lashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologizmlarni diaxron planda tadqiq qilish, frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar frazeologizmlarini qiyosiy o'rganish kabi masalalar xususida chuqur ilmiy monografik ishlar olib borilishi zarur. Shuningdek, o'zbek tilining frazeologik qatlamlarini belgilash, nutq jarayonidagi o'ziga xos qo'llanish xususiyatlari, frazeologizmlar o'zlashtirish kabi masalalar ham tilshunoslar e'tiborida bo'lishi kerak. Shuningdek, «xalq tili frazeologiyasi, o'zbek folklori frazeologiyasi, o'zbek dialektal frazeologiyasi materiallari hali tadqiq etilganicha yo'q».

Frazeologizmlar ham huddi naql-maqollar kabi keng ma'noli nutqimizga yanada ko'rk va hissiylik bag'ishlovchi birliklar sanaladi. Sh.Rahmatullayev fikriga ko'ra,

“Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga hos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi” [Sh.Rahmatullayev 4-b]

Biz quyida o'g'uz lahjasining Xorazm shevalaridagi frazeologizmlarni keksik tahlil qildik. Xususan, **“Ijoni chiqdi”** iborasi maydalamoq degan ma'noni bildiradi. Bu iborani Xorazm aholisidan boshqa hech kim qo'llanmaydi. Chunki qiymani faqatgina Xorazm aholisi **“ijjon”** deb ataydi. Shuning uchun ham bu iborani boshqa hududlarda qo'llashmaydi.

“Og'zi qonoyincho so'llidi” iborasi ko'p gapiradi degan ma'noda qo'llanadi bu ibora **“og'zi angakini yedi”** tarzida ham qo'llanadi. O'zbek adabiy tilidagi, “Labi-labiga tegmaydi” iborasi bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. Jumladan: *Quloqlorim og'rip getti mni gappinnan, uzam og'zi qonoyincho so'lladi oxir*(Shu sheva og'zaki nutqidan)

Shuningdek, o'g'uz lahjasining ayrim hududlaridagina ishlatiladigan iboralar ham borki ular barcha hududlarda faol emas. Bunday iboralarga quyidagilarni misol qilib o'tamiz. O'g'uz lahjasining Qo'shko'pir shevasida **“Do'g'ilmog'on bolog'o to'ssi beshik”** iborasi qo'llanilib, bir ish yakuniga yetmay turib xulosa qilma degan ma'noga ham to'g'ri keladi yoki o'zbek adabiy tilidagi *“Suvni ko'rib etik yechmoq”* frazeologizmiga teng keladi. **Masalan:** *Do'g'ilmog'on bolog'o to'ssi beshik na garak* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

Miyamda mejina choqmo iborasi mijg'ovlik qilma degan ma'noni bildiradi hamda o'zbek adabiy tilidagi **“Boshida yong'oq chaqmoq”**, **miyasida danak chaqmoq**, **miyasini qoqib qo'liga bermoq** iboralariiga teng. *Bolojonim nabalo miyamda mejina choqoson* (Shu sheva og'zaki nutqidan)

“Inna yutgon itdin” iborasi o'ta ozg'in odamga nisbatan ishlatiladi va juda ozg'in degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, Xorazm shevasining Qo'shko'pir





shevasida **“Mol yolog’on qoziqdin”** degan variantdoshi ham uchraydi. Bu frazeologizmlar o‘zbek adabiy tilidagi *“Eti suyagiga yopishgan”*, *“Qulog‘idan kun ko‘rinadi”*, iboralariga teng keladi. Bi bechoro bizmiqdin adi, menati og‘ir o‘xshidi inna yutgon itdin bo‘lipti. (Shu sheva og‘zaki nutqidan)

Uning o‘zbek adabiy tilida *“Qulog‘idan kun ko‘rinadi”* singari ko‘rinishi mavjud. Shuningdek, Xorazm viloyati Urganch shahar va Qo‘shko‘pir tumanlarida bu frazeologizmga qarama-qarshi yana bir ibora mavjud bo‘lib bu o‘ta semiz ma‘nosida qo‘llanadigan **“Ho‘bbini o‘kizidin”** tarzida ishlatiladi. (Nadagan samirip getipsan Ho‘bbini o‘kizidin).

Yuraki yorilg‘on Potmodin bu ibora asosan bir gapi ichi sig‘may darrov birovga aytadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek adabiy tilidagi og‘zida gap turmaydi iborasiga yaqin. *Songo ishonip oytilg‘on gapni darrov yetiripsan ha yuraki yorilg‘on Potmodin.* (Shu sheva og‘zaki nutqidan).

Keyingi iboramiz **“Timmitni toyoqidin”** tarzida qo‘llanilib, insonlarni holatini anglatib, juda yaxshi degan ma‘noda qollaniladi. *Xudog‘o shukur doriloni ichip timmitni toyoqidin bo‘lipsonqu.* (Shu sheva og‘zaki nutqidan)

Xorazm viloyatining shevalarida yana bir frazeologizm mavjud bo‘lib u oxirini bilmay turib gapirish ma‘nosida qo‘llanadigan **“Onglomin shonglomo”** iborasidir. Uning o‘zbek adabiy tilidagi **“Suvni ko‘rmay etik yechma”** frazeologizmi bilan sinonimlik qilish xususiyatiga ega.

Dialektal frazeologizmlar ham ma‘lum bir obraz asosiga quriladi va shu obrazni gavdalantirishda har xil predmet, voqea-hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. Shuning uchun ham, sheva frazeologizmlarini o‘rganishda albatta o‘rgalinayotgan sheva nutqidan foydalanish maqsadga muvfiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fan. dok. ...dis. –T., 1999. –321 b.
- 2.Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –T., 1991. -120 b.
- 3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologiya lug‘ati. -T.: O‘qituvchi , 1978. -264 b.
- 4.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi. –T.: Universitet, 1992. -126 b.
5. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 1992. –B.149

